



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



KELISHIK KATEGORIYALARINING USLUBIYATI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Sevinchbonu Rustamova

SamDU Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti 2-bosqich talabasi

U.Rashidova

Ilmiy rahbar:dots.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kelishik kategoriyalarining uslubiyati haqida mulohaza yuritiladi. Har bir uslubga tegishli manbalardan misollar keltiriladi, ularning o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Kelishik, kategoriya, stilistika, funksiya, semantik, sintaktik, uslubiy, bosh kelishik, tushum kelishigi*

Аннотация: *В этой статье рассматривается методология категорий согласования. Приводятся примеры из источников, относящихся к каждому стилю, раскрываются их отличительные черты.*

Ключевые слова: *Согласие, категория, стилистика, функция, семантика, синтаксис, методология, общее согласие, согласие на поступление.*

Annotation: *This article will reflect on the methodology of the categories of agreement. Examples are given from sources relevant to each style, the specifics of which are revealed.*

Keywords: *Agreement, category, stylistics, function, semantic, syntactic, methodological, head agreement income agreement.*

KIRISH: O'zbek tilshunosligida kelishik shakllarini o'rganish tilshunosligimizda A. G'ulomov tadqiqotlaridan boshlanadi. Olim o'zining 4 kitobdan iborat ilmiy merosida o'zbek tilidagi kelishiklarni ajratib, asosiy ma'noviy va sintaktik xususiyatlarini aniqladi va kelishik sistemasini tikladi.

Akademik A.N. Kononovning avval "Грамматика узбекского языка» va сўнгра «Грамматика современного узбекского литературного языка» asarlarida bu sistemaning formal tasnifi berildi. Shundan so'ng, bir qancha olimlar kelishik kategoriyasining alohida shakli formal tadqiq usuli asosida I. Ziyoyeva, T. Inoyatov, A. Yo'ldoshev, G. Ro'ziyev, A. Ma'rufov, R. Rasulov, Sh. Rahmatullayev kabi tilshunoslar tomonidan atroflicha tadqiq qilindi. Ularning tadqiqotlarida kelishikning nutqiy ma'nosi va sintaktik xususiyati yoritiladi. Kelishik shaklining sistemaviy tadqiqi H.Ne'matov, Sh. Shahobiddinova, Z. Qodirovlar tomonidan amalga oshirildi.

ASOSIY QISM. Tushun kelishigidagi otlar gapdagi ish-harakatni o'ziga qabul qilgan predmetni anglatadi. Bu so'z gapda hamma vaqt fe'l bilan birikib, harakatga aniqlik va muayyanlikni ifodalaydi. –ni qo'shimchasi orqali obyektning aniq, ma'lum ekanligi ta'kidlanadi. Tushum kelishigi faqat grammatik va sintaktik munosabatni ko'rsatish bilangina cheklanib qolmay, nutqning stilistik jihatdan rang-barang bo'lishiga ham xizmat



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



qiladi. Tushum kelishigining stilistik xususiyatlariga e'tibor berilsa, ularning biri o'rniga ikkinchisi biror stilistik maqsadda ishlatilganligining guvohi bo'lamiz.

Kelishiklararo va ko'makchilar bilan ma'nodoshlikni biz asosan, badiiy va so'zlashuv uslublarida kuzatamiz. Qolgan uslublarda o'z o'rnida qo'llaniladi.

Tushum kelishigi va bosh kelishigi formalarining vazifadoshligi - sinonimik tuzilma hosil qilishi o'timli fe'ldan anglashilgan harakat-holatning butun gapga yoki shu gapning biror bo'lagiga taalluqli bo'lishiga bog'liq: Ammo Saidiy hafta sayin jurnalning oxirgi sahifasida o'z ismini/ ismi "bosilmaydi" bezagi bilan ko'ravergandan so'ng yozuvchi bo'lish uchun o'zining tutgan yo'li/ yo'lini to'g'ri ekaniga/ ekanligiga shubhalana boshladi [A.Qahhor, Sarob 38-bet].

Bosh kelishikda kelgan otni o'rniga, tushum kelishigining belgisiz ishlatilishi yoki bosh kelishikda kelgan otlarni tushum kelishigida belgisiz qo'llanishi deb hisoblamasligimiz lozim. Masalan, Abdulla Qahhor "Sarob" romanida XIX asrning murakkab davri – 20-30-yillardagi ijtimoiy-siyosiy, tarixiy davrni keng miqyosda tasvirlaydi. Ushbu gapda birinchi "davr" so'zi bosh kelishikda, tushum kelishigini ishlatib bo'lmaydi. Ikkinchi "davr" so'zida esa belgili yoki belgisiz qo'llash mumkin, fe'l shaklini e'tiborga olgan holda, albatta.

Tushum va jo'nalish kelishigi formalarining vazifaviy qo'llanishi uslubiy sinonim sifatida ishlatilishi o'timli fe'ldan anglashilgan harakat-holatning obyektga qisman ta'sir etishi yoki shu obyektga borib o'timli fe'lning ichki formasi o'zgarishi bilan bog'liq hodisa kuzatiladi: Qiz o'ng'aysizlanar, xuddi birov ko'rib qolishidan hadiksiraganday atrofga qarar, ammo bu yigitga/yigitni zarur ishi bor yoki muhim bor joyga boshlab ketayotganday, bir qadam ham orqada qolmas edi [A.Qahhor, Sarob 6-bet]. ...– O'zi-ku, bizni: "Ilm-urfonga chanqoq xalq",– deydi, yana mehnatkash-nomehnatkash deb xalqni/ xalqqa ajratgani nimasi!... [A.Qahhor, Sarob 6-bet]. Misollardan ko'rinib turibdiki, tushum va jo'nalish kelishigi shakllari gap tarkibida qo'llangan ikki obyektдан qaysi biriga e'tibor jalb etilishiga ko'ra, ikki so'zda vazifaviy o'rin almashadi.

Tushum va chiqish formalarining sinonimik qo'llanishi, asosan, butun va bo'lak tushunchalari bilan bog'liq: nonni yemoq, nondan yemoq kabi. Lekin bunday sinonimik qo'llanish jins va tur tushunchalari o'rtasida bo'lishi ham mumkin. Masalan, Ulardan berida, o'zlarini sipo tutib turgan qizchalarga qandolatchi tegishadi, jamalaklaridan ushlab tortadi, qiyom yalatadi, bag'baqalarini silab, peshonalaridan o'pib, o'zining suyuqlashgan qonini gupurtiradi (199-bet). Berilgan gapda chiqish kelishigi almashinib qo'llangan "jamlalaklaridan va peshonalaridan" so'zlarida chiqish kelishi sinonimlik hosil qilsa, "qiyom(ni) va bag'baqalarini" leksikalarida tushum kelishigi shakli, chiqish kelishigi shakli bilan manodoshlik hosil qiladi.

Tushum kelishigi ba'zan yana o'rin-payt kelishigi bilan ham ma'nodoshlik hosil qilishi mumkin. Masalan, Dalada izg'ib yuribdi... Dalani izg'ib yuribdi...kabi Bunday holat, asosan, so'zlashuv uslubiga oid.

"Haqida", "to'g'risida" ko'makchilari tushum kelishigi bilan vazifadosh bo'lib qo'llanishi mumkin. Obyekt tushum shaklida bo'lganda, harakatning to'g'ridan-to'g'ri





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



yo‘nalishi, aniq nima ekanlik, sanash uslubi ot+haqida shaklida esa obyektning figuralligi umuman nima ekanligi xususiyati ifoda etiladi. Masalan: kamchiliklami gapiring — kamchilik haqida gapiring. Yutuqlaridan so‘zlang, yutuqlar haqida so‘zlang kabi. Masalan, Saidiy Munisxonning Ilhom to‘g‘risida / haqida bir vaqtda aytgan so‘zini esladi... Munisxon to‘g‘risidagi so‘ziga e‘tibor qilmasdan qololmas, shu bilan birga Munisxonni ham ko‘nglidan chiqarolmasdi... [A.Qahhor, Sarob 116-bet] singari.

Tushum kelishigi faqat sinonimlik hosil qilibgina qolmay, qaratqich kelishigi qo‘shimchasi bilan badiiy uslubda (she‘riyatda) -n shaklida uchrab omonimlik omonimlik xususiyatiga ega bo‘ladi. Bunday holatlar so‘zlashuv uslubida ham uchraydi, yozma nutqda esa uslubiy g‘alozlikni yuzaga keltiradi. Ammo she‘riyatda enversiya hodisa hisobga olinib, gapdagi bog‘langan bo‘laklariga qarab bir-biridan farqlanadi. Masalan, Vodiylarni yayov kezganda, bir ajib his bor edi manda. Chappar urib gullagan bog‘in, o‘par edim Vatan tuprog‘in [H. Olimjon, O‘zbekiston]. Ma‘lumki, tushum kelishigi qo‘shimchasi otni fe‘lga tobelantiradi, qaratqich kelishigi esa ism+ism munosabatida bo‘ladi.

Bundan tashqari, tushum kelishigi rasmiy, ilmiy, publitsistik uslublarda o‘z shaklini saqlab qolgan holda aniqlik va muayyanlikni ifodalaydi.

Uslublar	Misollar.
Ilmiy uslub	Botanika—o‘simlik haqidagi fan. Botanika termini yunoncha "botane" so‘zidan olingan bo‘lib, ko‘kat, o‘simlik degan ma‘nolarni anglatadi.
Rasmiy uslub	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qaror qiladi: “Mustaqillik” ordeni ta‘sis etilsin.
Publitsistik uslub	Davriy nashrlarni varaqlab, ularning adadiga ko‘zim tushib ajablanaman. Ancha ilgari nashr etilgan gazetalar bilan hozirgilarini orasida yer bilan osmoncha farq bor. Bu bugungi kundagi yangilik emas. Hozirda chop etilayotgan gazetalarining ayrimlarida tanqidiy materiallarni o‘qib qolishingiz mumkindir. "Gazeta o‘qimay qo‘ydik" publitsistik maqoladan...

Xulosa sifatida aytish mumkinki, kelishik kategoriyalarining uslubiyati tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot jarayonida kelishik shakllarining nafaqat grammatik munosabatlarni ifodalashi, balki nutqning uslubiy rang-barangligini ta‘minlashda ham faol ishtirok etishi aniqlandi. Xususan, kelishiklarning o‘rinli yoki o‘rinsiz qo‘llanishi matnning mantiqiy aniqligi, emotsional-ta‘sirchanligi va estetik qiymatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Badiiy uslubda kelishik shakllari obrazlilikni kuchaytirish, qahramon ruhiy holatini ochib berish va muallif munosabatini ifodalashga xizmat qilsa, ilmiy va rasmiy uslublarda ular aniqlik, ixchamlik hamda mantiqiy izchillikni ta‘minlaydi. Publitsistik nutqda esa kelishiklarning uslubiy imkoniyatlari ta‘sirchanlik va ishonitirish kuchini oshirish bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Iminov M., No‘monov T., Boboxonova D. O‘zbek tili uslubiyati masalalari “Namangan” nashriyoti, 2007. -B.113.
2. Қодиров. З. М. Ўзбек тили грамматик категорияларини систем тадқиқ этиш . номзодлик диссертацияси. -Тошкент. 1992.
3. Sultonsaidova. S, Sharipova. O‘. O‘zbek tili stilistikasi. -Toshkent, 2009.-B. 112.
4. Шомақсудов. А. Расулов. И. Қунғуров. Р. Рустамов. Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. -Тошкент:Ўқитувчи, 1983. -Б .300.
5. Замоनावий ўзбек тили. Морфология. -Тошкент, 2008. -Б. 569.
6. Abdulla Qahhor. Sarob. roman. -Toshkent : "Oltin qalam" nashriyoti, 2025. -B.322.

